IQTISODIYOTGA OID METAFORIK TERMINLARNI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Ikromjon Toshpulat-ug‘li Xabibjonov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: Terminologiyadagi yana bir muhim jihatlardan biri terminlarni standartlashtirish, tartibga solish, leksikografik talablarga mos qilish izohlash masalasidir. Iqtisodiyotga oid metaforik terminlarni muvofiqlashtirish masalalari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, metafora, standartlashtirish, terminologiya, muammo, variant

ISSUES OF HARMONIZATION OF METAPHORICAL TERMS RELATED TO ECONOMY

Ikromjon Toshpulat-ugli Khabibjonov
Tashkent University of Economics and Pedagogy

Abstract: Another important aspect of terminology is the issue of standardization, regulation, and interpretation of terms in accordance with lexicographic requirements. The issues of harmonization of metaphorical terms related to economics are briefly discussed.

Keywords: economy, metaphor, standardization, terminology, problem, option

Terminlarni standartlashtirish umumiy leksikografiyaning tarkibiy qismi sifatida sohalar terminologiyasiga oid izohli lug‘atlar yaratish bilan uzviy bog‘langandir. Termin va leksikogafik izohni yagona andoza asosida qayd etish terminologiyani standartlashtirishning asosiy mezonini tashkil etadi[1].

Biz ham ushbu bo‘limda iqtisodiyot terminologiyasida ko‘p qo‘llanadigan metaforik birikma terminlarni tartibga solish, tuzatish yuzasidan tavsiyalarimizni berib o‘tamiz. Quyida hozirgi kunda sohalar faoliyatida ko‘p qo‘llanayotgan shunday terminlarni va ularning tartibga solingan, tuzatilgan variantlarini keltiramiz:

Bojxona ma’murchiligi termini. Ushbu termin metaforik xususiyatli hisoblanadi, “bojxona organlarining bojxona qonunchiligini qo‘llash va ularga rioya etilishini ta’minlashga, shuningdek, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tayotgan shaxslarga xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan boshqaruv faoliyati” (IAIL, 2022, 49) manosini anglatadi. Ma’nosi jihatidan xatolik sezilmaydi, ammo

[1] Лингвистический аспект стандартизации терминологии / Даниленко В.П. и др. – М.: Наука, 1993. – С. 6.

(cc) BY

terminning metaforik komponenti xato qo‘llangan. Negaki *ma’murchilik* leksemasi termin yasovchilar nazarda tutgan tushunchani ifodalashga qodir emas. Buni tushuntirishda bizga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yordamga keladi. Lug‘atda o‘qiymiz: Ma’murchilik Mo‘l-ko‘lchilik, to‘kinchilik, farovonlik. *Yangi, gullagan xazonsiz bog‘lar - mo‘lko‘lchilik ramzi, ma’murchilik timsoli.* “Yoshlik”. *Ular el-yurt boyligi, ma’murchiligi uchun fidokorona mehnat qilayotirlar.* Gazetadan. *Uningcha, bu to‘ylar elimizdagi to‘kin-sochinlik, ma’murchilikka hecham qovushmaydi*. R.Rahmon, Mehr ko‘zda. (O‘TIL, III, 2022, 160)

Ma’lum bo‘lmoqdaki, *ma’murchilik* leksemasi “obodlik, farovonlik” ma’nosiga ega, metaforik ma’noga ega bo‘lganda ham shunga yaqin ma’no kasb etishi kerak edi, ammo ushbu leksemaga biriktirilgan terminologik tushuncha uning umumtildagi ma’no doirasida juda uzoqda. Buning sababi termin yasovchi mutaxassislar *ma’murchilik* leksemasini *ma’muriyatsilik* leksemasidan farqlamagan yoki ikkala leksemani bir xil ma’noli, birining o‘rnida ikkinchisini ishlatish mumkin deb hisoblagan. Bizning talqinimizga ko‘ra, termin *bojxona ma’murchiligi* emas, *bojxona ma’muriyatchiligi* shaklida hosil qilinishi to‘g‘ri bo‘ladi, terminologik tushuncha va uni ifodalovchi komponent o‘rtasida ham muvofiqlik vujudga keladi. *Ma’muriyatchilik* leksemasining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi leksikografik izohi ham ushbu fikrimizni isbotlaydi: Ma’muriyatchilik Ma’muriy huquqlarni suiiste’mol qilish. (III, 2022, 159)

Navbatdagi tuzatilishi kerak bo‘lgan metaforik termin *iqtisodiyotni tartiblash* hisoblanadi. Ushbu termin sohaviy lug‘atda “davlatning undagi turli bo‘g‘inlar, soha va tarmoqlar faoliyatining bir-biriga bog‘lanishi hamda mos holda rivojlanib borishi masalasida amalga oshiradigan ma’muriy va iqtisodiy chora-tadbirlari majmuyidan iborat” (IAIL, 2019, 184) deb izohlanadi. Ushbu terminda *tartiblash* leksemasi noto‘g‘ri qo‘llangan, chunki ma’no izohida tartiblash - tartibini belgilash haqida fikr yo‘q, balki tatibga solish haqida fikr yuritiladi. Shundan kelib chiqib, tartiblash komponentini *tartibga solish* leksemasi bilan almashtirish kerak bo‘ladi. Ana shunda terminologik tushuncha aniq ifodalangan bo‘lar edi.

Iqtisodiyot terminologiyasida dublet terminlar ham tartibga solinishi kerak, ya’ni unifikatsiya qilinishi zarur. Ma’lumki, dublet terminlar kelib chiqish manbayiga, tuzilishiga ko‘ra turli tomondan o‘rganilgan. Masalan, A.Madvaliyev kimyoga doir dublet terminlarni dastlab etimologik va morfologik dubletlarga ajratib olgan hamda bu ikki katta turga kiruvchi terminlarni yana ichki tiplarga bo‘lib o‘rgangan. Masalan, etimologik dubletlarning o‘z yoki o‘zlashma qatlamga oidligini aniqlash maqsadida: 1) o‘zbekcha-o‘zbekcha; 2) ruscha-o‘zbekcha; 3) baynalmilal-

(cc) BY

o‘zbekcha; 4) baynalmilal-ruscha; 5) baynalmilal-baynalmilal tiplarga ajratib tadqiq qilgan[2].

Tadqiqotchi Y.Haydarov o‘zining atributiv terminlarda dubletlik masalasi yoritilgan maqolasida “*dublet* termini fransuzcha *doublet* < *double* co‘zidan olingan bo‘lib, *ikkilik* degan ma’noni anglatadi”[3], - deb aytadi. Boshqa lingvistik lug‘atlarda ham *dublet* termini asosan ana shu va shunga yaqin ma’nolarda qayd qilingan. Chunonchi, O.Axmanovaning lug‘atida dublet terminining 3 ma’nosi keltiriladi[4]. A.Hojievning lug‘atida esa “bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo‘lgan til birliklari” deb izohlanadi va mutlaq sinonimlarga tenglashtiriladi[5].

Masalan, soliq-bojxona ishiga doir *bojxona nazorati - bojxona ko‘rigi, bojxona ishi - bojxona xizmati, egri soliq - aksiz soliq, soliq solish - soliqqa tortish* terminlari o‘rtasidagi dubletlik mavjud. Bu yerda metaforik xususiyatli komponentlar qora rangda ko‘rsatildi. Mazkur dubletlarning yuzaga kelishi ikki terminni tilda birday ishlataverish natijasidir. Til egalari tomonidan mazkur dubletlar qo‘llanishda davom etar ekan, mazkur terminologik nuqson barataraf bo‘lmaydi.

Terminlar mavzusi bilan shug‘ullangan aksar tadqiqotchilar murojaat qiladigan V.P. Danilenkoning monografiyasida fan tilida dubletlarning paydo bo‘lishi sabablari quyidagicha ko‘rsatiladi: 1) turli davrlarda bitta tushuncha uchun turli tillardan ikki va undan ortiq terminning qabul qilinishi va qo‘llanishi tufayli; 2) bitta tushunchani ifodalash uchun o‘zlashma termin hamda o‘z til unsurining qo‘llanilishi sababli; 3) bitta tushuncha uchun chet tildan termin olinishi bilan o‘z tildan unga muqobil topilishi va har ikkisining fan tilida qo‘llanilishi oqibatida[6].

Demak, bitta terminologik tushunchaning ikki va undan ortiq termin bilan nomlanishi terminologik aniqlikni yo‘qotadi. I.Yo‘ldoshev terminologiyada dubletlikning bo‘lishini terminshunoslikning asosiy nuqsoni sifatida ko‘rsatib berarkan, vaqtinchalik bu hodisa terminlarni tartibga solish jarayonida asta-sekin bartaraf etib borilsa-da, ammo ma’lum davr mobaynida u terminlardan foydalanishda turli qiyinchilik va yuzaga keltirishini mumkinligini ta’kidlaydi[7]. Haqiqatan ham shunday. Toki mas’ul idora yoki maxsus ko‘rsatma asosida tartibga solinmagunga qadar soha mutaxassislari sinonim va dublet terminlardan foydalanaveradi.

---

[2] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 95-114.

[3] Ҳайдаров Ё. Атрибутив терминларда дублетлик масаласи / Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, – Б. 2011.

[4] Ахманова О.С. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1969.

[5] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 37.

[6] Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977. – С. 73-75.

[7] Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологиясини тартибга солиш масаласига доир / Сўз ўзлаштириш ва терминологияни такомиллаштириш муаммоларига доир / Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 36.

(cc) BY

Dubletlik iqtisodiyot terminlarida eski o‘zbek tili davridan mavjud, chunki soliq va bojxona ishi yurtimizda qadimdan bo‘lgan. Tarix kitoblaridagi ma’lumotga ko‘ra, xiroj hosildan olinadigan asosiy yer solig‘i sifatida XVI - XIX asrlarda *dahi du, nimni* terminlari bilan ham yuritilgan[8]. XVI asrda xiroj o‘ndan ikki qismni, ya’ni beshdan biri miqdorida olingan. “G‘aroyibi sipoh” asarida yozilishicha, 1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonni zabt etib, u yerga Ibrohim parvonachini hokim qilib tayinlaydi. Ibrohim xalqqa kuchli zulm o‘tkazadi, turli feodal majburiyat va soliqlarni juda ham ko‘paytirib yuboradi. U, hatto, besh daraxtdan biri va tegirmon, objuvozlardan keladigan daromadning yarmini xiroj uchun olgan[9]. Mana bu hol XVI-XVII va hatto XIX asrlarda ham Farg‘onada xiroj hosilning beshdan birini tashkil qilganini tasdiqlaydi[10]. S.Azimjonova ham shunday fikrni aytgan[11]. Demak, ikkita beshdan bir (dahi du) o‘n miqdorning yarmini - *nimni*ga teng keladi. Shunga ko‘ra, ular mutlaq sinonimlardir.

Demak, terminologik tizimlar yangi-yangi terminlar bilan boyib borar ekan yoki yangi terminologik tizimlar vujudga kelar ekan, dubletlik an’ana sifatida saqlanib qolaveradi[12]. Har bir terminologiya esa dublet terminlarni kamaytirib, tartibga solib boraveradi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamalar komissiyaning tashkil etilishi terminologiyadagi shu kabi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Aksar terminologiyalarda bo‘lganidek iqtisodiyot terminologiyasida ham terminologik variantlilik uchraydi. Xususan, Y.Shirinova bank-moliya terminlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishida ushbu soha terminlaridagi variantlilik borligini ta’kidlaydi, uni bartaraf qilish bo‘yicha fikrlarni bildiradi.[13] O‘zbek tilidagi jarayon anglatuvchi terminlarni o‘rgangan X.Narxodjayevaning monografiyasida ham terminologiyadagi muammolarga alohida bobda e’tibor qaratadi[14]. Ana shunday terminlar sifatida *soliq ma’muriyatchiligi - soliq ma’murchiligi, bojxona ma’muriyatchiligi - bojxona ma’murchiligi* terminlarini keltirishimiz mumkin. Quyidagi illustrativ misollar asosida bunga guvoh bo‘lamiz:

1. *...tadbirkorlik subyektlariga majburiyatlarni bajarishda yengillik berish va soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish nazarda tutilgani qayd etilgan*. (https://kun.uz/uz/news/2021/02/06/) - *Soliq ma’murchiligida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda yangilik bo‘lishi kutilmoqda*. (https://kun.uz/uz/news/2021/02/06/)

[8] Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 36.
[9] “Ғаройиби сипоҳ”. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. – № 5408, 29 б-варақ.
[10] “Ёрлиқлар тўплами”, 96/2-, 87/12-, 82/17-, 79/23-, 71/29-, 36/31- ҳужжатлар.
[11] Азимжонова С.А. К история Ферганы второй половины XV в., – С. 85-86.
[12] Мадвалиев А. Ўша асар, 89-бет.
[13] Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: Филол. фан. фалс. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 23.
[14] Нарходжаева Х. Жараён англатувчи терминларнинг ўзбек тилида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 84-94.

(cc) BY

2. *Shiddat bilan o‘zgarayotgan iqtisodiy vaziyatda bojxona ma’muriyatchiligiga nisbatan yangidan-yangi talablar yuzaga kelmoqda*. (“O‘zbekiston bojxona axborotnomasi”dan) - *Farmonga muvofiq, bojxona ma’murchiligini tubdan isloh etish orqali tizim faoliyati samaradorligini oshirishning istiqbol yo‘nalishlari belgilab berilgan*. (“O‘zbekiston bojxona axborotnomasi”dan)

Shu bilan bir qatorda, soha terminologiyasida *metaforik bojxona ko‘rigi* terminiga metaforik bo‘lmagan *bojxona nazorati, bojxona tekshiruvi* terminlari variantlar sifatida ishlatib kelinmoqda: *Barcha rivojlangan davlatlarda bojxona ko‘rigi xavf-xatardan ogoh etish tizimi orqali amalga oshiriladi*. (“O‘zbekiston bojxona axborotnomasi”dan) - *Tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida bojxona risklarini kamaytirish va bojxona nazorati bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirishdan iborat*. (“O‘zbekiston bojxona axborotnomasi”dan) Shunday qilib, variantlilikni bartaraf etish, ya’ni tartibga solish masalasida biz ham N.Mahkamov tavsiyasiga qo‘shilamiz, ya’ni soha mutaxassislari tilshunoslar bilan maslahatlashgan holda barcha terminologik talablarga javob beradigan terminni tanlab olishi hamda boshqa sinonimlarni iste’moldan chiqarishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. - Тошкент: Мериус, 2017. - 140 б.

2. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси муаммолари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. - 384 б.

3. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Тошкент: Фан, 1988. - 292 б.

4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. - Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. - 122 б.

(cc) BY